

YOSH OILALAR MUAMMOLARINI O'RGANISHDA JAMOATCHILIK FIKRI INSTITUTI

Cho'liyev Baxtinur

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti sotsiologiya
yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236264>

***Annotatsiya.** Maqola yozishdan maqsad O'zbekiston Respublikasida yashovchi oila bo'sag'asida turgan yoshlar va yosh oilalar haqida tushuncha yozish. O'zbekistonda oilalarning ajralish darajasi, statistikasiga ham alohida to'xtalamiz.*

***Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, nikoh, yoshlar, ajrim, statistika.*

INSTITUTE OF PUBLIC OPINION IN STUDYING PROBLEMS OF YOUNG FAMILIES

***Abstract.** The purpose of writing an article is to write an understanding of young people and young families living on the threshold of a family living in the Republic of Uzbekistan. We will also pay special attention to the level of family separation and statistics in Uzbekistan.*

***Key words:** Family, society, marriage, youth, decision, statistics.*

ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМ МОЛОДЫХ СЕМЕЙ

***Аннотация.** Целью написания статьи является понимание молодых людей и молодых семей, проживающих на пороге семьи, проживающей в Республике Узбекистан. Мы также уделим особое внимание уровню разлучения семей и статистике в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** Семья, общество, брак, молодежь, решение, статистика.*

KIRISH. Eng avvalo oilaga ta'rif bersak oila – bu davlatning kichik bo'g'ini hisoblanadi. “Oila – mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir”, deb ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev¹. O'zbekistondagi oila qurishning asosida, eng avvalo, avlod qoldirish (37,1 %), sevimli kishisi bilan birga yashash (25,8 %) singari maqsadlar yotishi qayd etildi. Shuningdek, (25,6 %) oila qurishda milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda asosiy maqsadini belgilaydi².

¹

²

Oilani jamiyatning ravnoq topishida tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar qo'mitasi" huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.³ Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qabul qilindi. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa sharoitlar yaratadi" - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bob, 76 – modda.⁴ "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi "Xalqaro oila kuni" arafasida nikoh va oilaviy munosabatlarning eng dolzarb masalalari, mavjud oilaviy muammolarni aniqlash va ularning yechimini topishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazdi⁵.

O'tkazilgan so'rovlarda respublikamizning barcha hudulari, shahar va qishloq joylarida yashovchi turli soha va tarmoqlarda band bo'lgan 18 va undan katta yoshdagi fuqarolar ishtirok etdi. O'tkazilgan tadqiqot fuqarolarning bo'lajak turmush o'rtog'ini tanlash va oila qurish mezonlariga bo'lgan munosabatini aniqlab berdi.

So'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistonliklar moliyaviy mustaqillik, oila uchun alohida doimiy uy-joyning mavjudligi va bo'lajak er-xotinning jismoniy salomatligini oila qurishning asosiy shartlari, deb hisoblaydilar. Aksariyat respondentlar (76,5%) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerak, deb hisoblaydilar. Bunda o'zbekistonliklarning fikriga ko'ra, tayyorgarlik jarayonida asosiy rolni yoshlarning ota-onalari o'ynaydi.

Ajrimlar haqida gapiradigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekistonda jami 48734 ta oila nikohdan rasman ajrashgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 39227 tani tashkil qilgan.

Hududlar kesimida nikohdan ajralish holatlari soni eng ko'p - Toshkent shahri (5901 ta) hamda Farg'ona (5545 ta) va Toshkent viloyatlarida (5098 ta) kuzatilgan. Shuningdek:

- Andijon viloyati - 5019 ta
- Samarqand viloyati - 4907 ta
- Namangan viloyati - 4394 ta
- Qashqadaryo viloyati - 3472 ta

- Surxondaryo viloyati - 2810 ta
- Buxoro viloyati - 2561 ta
- Xorazm viloyati - 2138 ta
- Qoraqalpog'iston Respublikasi - 2087 ta
- Sirdarzo viloyati - 1764 ta
- Jizzax viloyati - 1728 ta
- Navoiy viloyati - 1430 ta tashkil qilgan.

Yosh oila nuqtai nazaridan dolzarb sanalgan ikki muammoni alohida ko'rsatish zarur, bular: sosial-iqtisodiy va sotsial-psixologik muammolar bo'lib, birinchi holatda muammolar yosh oilaviy juftlikning moddiy, uy-joy, ish o'rinlari bilan ta'minlanganligi asosida kelib chiqadi. Chunki, yosh oilalarning salmoqli qismi daromadi past bo'lib, ko'pchiligi kambag'al hisoblanadi. Mehnat bozorida yosh mutaxassisga talabning pastligi yoki ish tajribasining yo'qligi yosh oilaning moddiy holatini yomonlashtirish bilan bir qatorda mamlakat aholisi turmush tarzini tushib ketishiga olib keladi. Umuman yosh oilaning barqarorligi va zamonaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarga oilaviy daromadning pastligi, xususiy uy-joyning yo'qligi; farzandlar tug'ilishi munosabati bilan kambag'allashish, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasliklari, oilaviy hayotning ma'naviy va ruhiy asoslarini bilmaslik, ziddiyatlarni hal eta olmaslik, xudbinlikni kiritish mumkin.

REFERENCES

1. Stat.uz sayti.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Matn) – Toshkent, 2023-yil - 112 b.
3. O'zbekiston tarixi – Toshkent, 2019-yil.
4. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari – Toshkent, 2004-yil
5. G.G.Tagieva, H.T.Husanova. Oila va gender sotsiologiyasi-Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 304 bet.